Elektrodinamika bo'limini o'qitishda zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-metodik tahlili	1842
Abdullayev Botirxon Ismoilovich	
Bolalar adabiyoti ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish masalasida tushunchalar tahlili pedagogik muammo sifatida	1846
Abdullayeva Moxidilxon Dilshodbek qizi	
Biologiya ta'limida konseptual modelni qo'llash va uning samaradorligini baholash	1850
Abdurasulova Gulrux Xabibullaevna	
Dizartriyali bolalarning ovoz va nafasni rivojlanganlik holatini eksperimental o'rganish natijalari	1854
Abidova Nilufar Zakirovna, Shaxodjayeva Nilufar Raimjonovna	
Kasbiy etika va deontologiya: bo'lajak shifokorlar tarbiyasida innovatsion yondashuvlar	1857
Ahmedova Nigora Dadahonovna	
Tabiiy fanlar va matematika integratsiyasi orqali ekologik mas'uliyatni shakllantirish metodikasi	1862
Ashurova Gulhayo Nurali qizi, Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi	
Inklyuziv ta'lim tizimida imkoniyat cheklangan o'quvchilarni o'qitishga lingvopedagogik yondashuv	1865
Asranbayeva Munojot	
Chet tili mashg'ulotlarida yozma nutqni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	1868
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	



Ekologik muhit asosida bolalar psixo-fiziologik rivojlanish jarayonini takomillashtirish.....	1872
<i>Axmedjonova Nozigul Zaripovna</i>	
O'smir yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish	1876
<i>Baxrillayeva Moxichexra Raxmatillayevna</i>	
Xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlari.....	1880
<i>Bayzakova Malika</i>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	1884
<i>Berdiyeva Muborak Baxtiyorovna, Saydinova Barno</i>	
O'yin texnologiyalari asosida matematik bilimlarni takomillashtirish va uning ahamiyati.....	1889
<i>Botirova M. B.</i>	
Talabalar orasida ko'p uchraydigan akademik muvaffaqiyatdan qo'rqish va uning yechimlari.....	1892
<i>Celal Algan</i>	
Kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorgarlik izlanishlari.....	1896
<i>D. G'. Akramova</i>	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish	1899
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri talqini	1905
<i>Dostanova Kamola Alisher qizi</i>	
Dual ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar	1909
<i>Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna</i>	
The Sociolinguistic Effectiveness of Using Authentic Texts in the Training of Prospective English Language Teachers	1912
<i>Elyor A Pazilov</i>	
Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari	1916
<i>Ermatova Gullola Ziyod qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	1919
<i>Eshmo'minova Sitara Xayrullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishda tizimli-vaziyatli yondashuvning nazariy asoslari	1922
<i>Gapparova Zilola Neymat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kreativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	1926
<i>Hayitboevna Zarina Otanazarovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni tushuntirishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish usullari.....	1930
<i>Hojimamatova Jamila, Ahmedova Umidaxon Yodgorjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish	1933
<i>Inobatxon Toshpo'latova</i>	
4-sinf o'qish savodxonligi darsligidagi "Qarg'a va paxta" hikoyasi orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'rni.....	1937
<i>Jo'lliboyeva Mahliyo Hamro qizi, Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i>	
Mantiqiy tafakkur tushunchasi mohiyati.....	1941
<i>Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich</i>	
Developing Tolerance Skills in Future Teachers During their Professional Training.....	1945
<i>Joldasbaeva Arzigul Muratbaevna</i>	
O'quvchilarda aksiologik yondashuvlar asosida empatik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	1948
<i>Jumanov Erdavlet Sharifjon o'g'li</i>	
Yo'l harakati xavfsizligi va uni maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-metodologik asoslari	1952
<i>Jumayev Yunus Rashidovich</i>	
Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
<i>Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna</i>	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
<i>Karimov Ilhom Normamatovich</i>	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
<i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
<i>Kayumova Dilnoza Patxulla qizi</i>	



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoira Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yoldasheva Dilshoda To'lqinovna	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjiakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasiidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'lqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	



MAKTABGACHA KICHIK YOSHDAGI BOLALARNING SENSOR ETALONLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Kayumova Dilnoza Patxulla qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning nazariy-amaliy jihatlarini hamda psixologik-pedagogik ahamiyati o'rganilgan. Tadqiqotda sensor etalonlar tushunchasi, ularning turlari va 3–4 yoshli bolalarda sensor etalonlarni shakllantirishning kognitiv rivojlanish, nutq rivojlanishi hamda o'quv faoliyatiga tayyorgarlikdagi o'zni tahlil qilingan. Sensor tarbiya zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimining muhim komponenti sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada sensor etalonlarni shakllantirish jarayonining bosqichlari, usullari va shakllari ilmiy asosda tavsiflanib, amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sensor etalonlar, sensor tarbiya, maktabgacha ta'lim, kognitiv rivojlanish, kichik yoshdagi bolalar, idrok, sensor qobiliyatlar, pedagogik jarayon.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects, as well as the psychological and pedagogical significance, of forming sensory standards in young preschool children. The research analyzes the concept of sensory standards, their types, and their role in cognitive development, speech development, and preparation for learning activities in children aged 3–4. Sensory education is considered an essential component of the modern preschool education system. The article scientifically describes the stages, methods, and forms of forming sensory standards and provides practical recommendations.

Key words: sensory standards, sensory education, preschool education, cognitive development, young children, perception, sensory abilities, pedagogical process.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-практические аспекты и психолого-педагогическое значение формирования сенсорных эталонов у детей младшего дошкольного возраста. В исследовании анализируются понятие сенсорных эталонов, их виды, а также роль их формирования в когнитивном развитии, развитии речи и подготовке к учебной деятельности детей 3–4 лет. Сенсорное воспитание рассматривается как важный компонент современной системы дошкольного образования. В статье научно описаны этапы, методы и формы формирования сенсорных эталонов, даны практические рекомендации.

Ключевые слова: сенсорные эталоны, сенсорное воспитание, дошкольное образование, когнитивное развитие, дети младшего возраста, восприятие, сенсорные способности, педагогический процесс.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bolalarning kognitiv qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu jarayonda sensor tarbiya muhim o'rin tutadi, chunki u bolalarning atrofdagi olam haqida tasavvurlarini shakllantirishga, ularning sezgi organlarini rivojlantirishga va sensor qobiliyatlarni takomillashtirishga qaratilgan maqsadli pedagogik ta'sir hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sensor etalonlar tushunchasi zamonaviy psixologiya va pedagogikada markaziy o'rinni egallaydi. Sensor etalonlar deganda jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan, narsalarning xususiyatlarini baholashda mezon vazifasini bajaruvchi namunalar tizimi tushuniladi. Bularga ranglar spektri, geometrik shakllar, tovushlar balandligi, o'lchamlar tizimi va boshqa ko'plab namunalar kiradi. Ular bolalarning atrofdagi dunyoni to'g'ri idrok etishida asosiy yo'llanma vazifasini bajaradi.

Ayniqsa, 3–4 yoshli bolalarda sensor etalonlarni shakllantirish katta ahamiyatga ega, chunki bu davr bolaning sensor rivojlanishi uchun sezitiv, ya'ni eng qulay davr hisoblanadi. Ushbu yoshda bolalar atrofdagi pred-

metlarning xususiyatlarini faol ravishda o'rganadilar, ularni farqlash va tasniflash qobiliyatlarini rivojlantiradilar, shu bilan birga atrofda dunyoni anglash uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarni egallaydilar.

Sensor etalonlar nazariyasi rus psixologi Leonid Abramovich Venger tadqiqotlarida batafsil ishlab chiqilgan bo'lib, u sensor etalonlarni predmetlarning xususiyatlari va munosabatlarining jamiyat tomonidan qabul qilingan namunalar tizimi deb ta'riflagan. Uning asarlarida sensor etalonlarning bolalar idrokida tutgan o'rni, ularning shakllanish mexanizmlari va pedagogik sharoitlari chuqur tahlil qilingan. Aleksandr Vladimirovich Zaporozhets, Aleksandra Platonovna Usova, Nadezhda Pavlovna Sakulina va Elizaveta Ivanovna Tikheeva kabi taniqli olimlarning tadqiqotlari sensor tarbiyaning nazariy asoslarini yaratishga katta hissa qo'shgan. Ularning ishlarida bolalarning sensor qobiliyatlarini rivojlantirishning turli jihatlari, metodlari va vositalari keng yoritilgan. Mariya Montessori pedagogik tizimi ham sensor tarbiyaga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, uning maxsus ishlab chiqilgan didaktik materiallari butun dunyo maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llanilmoqda.

Zamonaviy pedagogikada sensor etalonlarning bir necha asosiy turlari ajratiladi va ularning har biri bolaning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Rang etalonlari spektrning asosiy va oraliq ranglarini o'z ichiga oladi, masalan, qizil, sariq, yashil, ko'k, pushti, to'q sariq va boshqa ranglar bolalar tomonidan tanib olinishi va nomlanishi kerak. Shakl etalonlari geometrik shakllarni, ya'ni doira, kvadrat, uchburchak, to'rtburchak, oval, romb va boshqa shakllarni farqlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O'lcham etalonlari bolalarga predmetlarni uzunlik, kenglik, balandlik va qalinlik bo'yicha nisbiy taqqoslash imkoniyatini beradi. Tovush etalonlari tovushlarning balandligi, kuchi va tembrini farqlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Tuyg'u (tug'ish) etalonlari turli sirtlarning teksturasini, ya'ni silliq, g'adir-budir, yumshoq yoki qattiq bo'lishini his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ta'm etalonlari asosiy ta'mlarni, masalan, shirin, achchiq, nordon va sho'r ta'mlarni ajrata bilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Hid etalonlari esa turli hidlarni farqlash va tanib olish qobiliyatini rivojlantiradi.

Kichik yoshdagi, ayniqsa 3–4 yoshli bolalarda sensor idrok bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, bularni bilish pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Sinesteziya hodisasi turli sensor modaliklar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi, masalan, bolalar ranglarni tovushlar bilan yoki ta'mlarni ranglar bilan bog'lashi mumkin. Global idrok xususiyati bolalarning predmetni yaxlit holda, uning barcha qismlarini ajratmasdan qabul qilishida namoyon bo'ladi. Sensor idrok amaliy harakat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bolalar ko'pincha narsalarni ko'rish bilan birga ularga tegish, ushlab ko'rish orqali o'rganadilar. Sensor tajriba emotsional rang bilan to'yingan bo'lib, bolalar o'zlari yoqtirgan ranglar, shakllar va teksturalarni tanlashda o'z his-tuyg'ulariga tayanadi.

Sensor tarbiyani samarali tashkil etish uchun maxsus rivojlantiruvchi muhit yaratish zarur bo'lib, bu muhit turli didaktik materiallarni o'z ichiga olishi kerak. Rangli piramidalar, shakllarni tartiblash uchun qoliplar, mozai-kalar va boshqa o'yinchoqlar bolalarning sensor qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Qum, suv, don, toshlar kabi tabiiy materiallar ham sensorikani rivojlantirish uchun bebaho manba bo'lib xizmat qiladi. Turli teksturali narsalar bilan ishlash bolalarda tuygu sezgisini rivojlantiradi, tovushli o'yinchoqlar va musiqa asboblari esa eshitish sezgisini takomillashtiradi.

O'yin faoliyati kichik yoshdagi bolalar uchun asosiy faoliyat turi bo'lib, sensor etalonlarni shakllantirishning eng samarali vositasidir. Didaktik o'yinlar, masalan, "Rangini top", "Shakllar uyi", "Katta–kichik" kabi o'yinlar bolalarga sensor etalonlarni o'ynab o'rganish imkoniyatini beradi. Syujetli–rolli o'yinlarda sensorikani o'yin syujetiga integratsiya qilish mumkin, masalan, do'konda xarid qilish o'yinida ranglar va o'lchamlarni ajratish talab qilinadi. Harakatli o'yinlar sensor va motor koordinatsiyani birgalikda rivojlantiradi, bu esa bolaning umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir.

Badiiy–estetik faoliyat sensor etalonlarni o'zlashtirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Chizish va bo'yash orqali rang etalonlarini o'zlashtirish tabiiy va qiziqarli jarayon bo'lib, bolalar turli ranglarni aralashtirib, yangi ohanglarni yaratishni o'rganadilar. Aplikatsiya va konstruktivlik bilan shug'ullanish shakl va o'lcham idrokini rivojlantiradi, chunki bolalar turli shakllarni kesish, joylashtirish va birlashtirishni o'rganadilar. Musiqa mashg'ulotlari tovush etalonlarini shakllantirishda katta rol o'ynaydi, bolalar turli tovushlar balandligi va tembrini farqlashni, ritm hissini rivojlantiradilar. Kundalik hayot jarayonlari ham sensor etalonlarni kuzatish va qo'llash uchun boy imkoniyatlar yaratadi. Kiyinish jarayonida bolalar ranglar, o'lchamlar va teksturalarni farqlashni o'rganadilar, qaysi kiyim qanday ob-havoga mos kelishini tushunadilar. Ovqatlanish vaqtida ta'm, hid va temperatura kabi sensor xususiyatlarni his qilish va ularni so'zlar bilan ifodalash imkoniyati tug'iladi. Sayr paytida tabiat obyektlarini kuzatish, ularning rangini, shaklini, o'lchamini taqqoslash sensor tajribani boyitadi va kengaytiradi.

Sensor etalonlarni shakllantirishning bosqichlari quyidagilar:

Sensor etalonlarni shakllantirish jarayoni bosqichma–bosqich amalga oshiriladi va har bir bosqich o'ziga xos vazifalar hamda maqsadlarga ega.

Birinchi bosqich tanishish bosqichi bo'lib, 3–3,5 yoshga to'g'ri keladi va bu davrda bolalar sensor etalonlar bilan boshlang'ich tanishuv olib boradilar. Ular obyektlar bilan amaliy manipulyatsiya qiladilar, ularni ushlab



ko'radilar, his qiladilar va o'rganadilar. Bu bosqichda kattalar namoyishi va taqlid qilish asosiy o'rganish usuli hisoblanadi, chunki bolalar kattalarning harakatlarini kuzatib, ularni takrorlab, sensor tajriba to'playdilar.

Ikkinchi bosqich o'zlashtirish bosqichi deb ataladi va 3,5–4 yoshni qamrab oladi. Bu davrda bolalar sensor etalonlarni faol o'rganadilar, predmetlarni etalonlar bilan taqqoslash ko'nikmalarini egallaydilar. Ular oddiy sensor vazifalarni mustaqil bajarishga qodir bo'ladilar, masalan, bir xil rangdagi predmetlarni guruhlash yoki shakl bo'yicha tartibga joylashtirish kabi vazifalarni to'g'ri bajaradilar. Bu bosqichda bolalarning mustaqilligi ortadi va ular sensor tajribalarini verbal ravishda ifodalashni boshlaydilar.

Uchinchi bosqich mustahkamlash bosqichi bo'lib, 4 yosh va undan katta bolalarga mo'ljallangan. Bu bosqichda sensor etalonlarni turli vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari shakllanadi va mustahkamlanadi. Bolalar murakkab sensor vazifalarni bajarish qobiliyatiga ega bo'ladilar, masalan, bir necha mezon bo'yicha tartiblash yoki kompozitsiyalarni yaratish. Ijodiy faoliyatda sensor bilimlardan foydalanish bu bosqichning asosiy xususiyati bo'lib, bolalar o'z tasavvurlari asosida rang, shakl va o'lchamlarni qo'llaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sensor etalonlarni shakllantirishda turli metodlardan foydalaniladi va ularning har biri o'ziga xos imkoniyatlar yaratadi. Empirik metodlar ichida kuzatish metodi muhim o'rin tutadi. Bu metod predmetlar va hodisalarni sensor jihatdan o'rganishni nazarda tutadi. Bolalar atrofda narsalarni diqqat bilan kuzatadilar, ularning xususiyatlarini aniqlaydilar va o'zlariga tushunarli tilda ifodalaydilar. Taqqoslash metodi predmetlarning xususiyatlarini solishtirish imkonini beradi, masalan, ikki yoki undan ortiq predmetlarni rang, shakl yoki o'lcham bo'yicha solishtirish orqali ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlaydilar. Tajriba metodi sensor xususiyatlarni eksperimental aniqlashni o'z ichiga oladi, bolalar turli materiallar bilan tajribalar o'tkazib, ularning xossalarini o'rganadilar.

Amaliy metodlar sensor ko'nikmalarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Mashqlar metodi sensor harakatlarni takrorlash va mustahkamlashni ta'minlaydi, bolalar bir xil vazifani bir necha marta bajarib, malaka hosil qiladilar. Modellashtirish metodi sensor obrazlarni yaratish jarayonini o'z ichiga oladi, bolalar predmetlarning modellarini yasab, ularning asosiy xususiyatlarini ajratib olishni o'rganadilar. Algoritmik harakatlar metodi ketma-ket sensor vazifalarni bajarishni nazarda tutadi, bolalar ma'lum bir tartibda harakatlar ketma-ketligini egallaydilar.

Bundan tashqari, og'zaki metodlar ham mavjud. Og'zaki metodlar sensor tajribani verbalizatsiya qilish va so'z boyligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Suhbat metodi sensor tajribani so'zlar bilan ifodalashni o'rgatadi, pedagog bolalar bilan predmetlarning xususiyatlari haqida suhbatlashib, ularning fikrini to'liqroq ifoda etishga yordam beradi. Tasvirlash metodi predmetlarning sensor xususiyatlarini so'zlar bilan ifodalashni o'z ichiga oladi, bolalar predmetni tavsiflab, uning rangi, shakli, o'lchami va boshqa xususiyatlarini aytib beradilar. Hikoya qilish metodi sensor predmetlar haqida hikoyalar tuza olish ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu nafaqat sensor, balki nutq va ijodiy qobiliyatlarni ham takomillashtiradi.

Sensor tarbiyaning samaradorligini baholashda sensor etalonlarning shakllanganlik darajasini baholash uchun bir necha mezonlardan foydalaniladi. Bilim darajasi mezoni sensor etalonlar haqida tasavvurlarning mavjudligini aniqlaydi, ya'ni bola qanday etalonlarni bilishi va ularni nomlashi mumkinligini ko'rsatadi. Ko'nikma darajasi mezoni sensor vazifalarni bajarish qobiliyatini baholaydi; bola amaliy ravishda ranglarni ajrata olishi, shakllarni tanishi va predmetlarni o'lcham bo'yicha tartibga joylashtirishini tekshiradi. Qo'llanilish darajasi mezoni turli vaziyatlarda sensor bilimlarni qo'llash qobiliyatini o'lchaydi, bola o'z bilimlarini yangi sharoitlarda qo'llay olishi va kundalik hayotda ulardan foydalanishini ko'rsatadi.

Diagnostika usullari orasida rang etalonlarini aniqlash va nomlash testi muhim bo'lib, bu test orqali bola 7–8 ta asosiy rangni tanishi va to'g'ri nomlashi tekshiriladi. Geometrik shakllarni tanish va farqlash testi bolaning doira, kvadrat, uchburchak, to'rtburchak va oval kabi asosiy shakllarni bilishini aniqlaydi. O'lchamlar bo'yicha tartibga joylashtirish vazifasi boladan 3–5 ta predmetni o'lchami bo'yicha to'g'ri tartibda joylashtirishni talab etadi. Teksturalarni tuygu orqali farqlash testi bolaning turli sirtlarni tegish orqali farqlay olish qobiliyatini baholaydi. Tovushlarni eshitish orqali aniqlash testi eshitish sezgisining rivojlanganligini va tovushlarni farqlash ko'nikmalarini o'lchaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sensor tarbiya bolaning kognitiv rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega, chunki sensor etalonlar idrok jarayonlarini takomillashtiradi va bolaga atrofda dunyoni aniqroq hamda chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi. Sensor tajriba diqqat va xotirani rivojlantiradi, chunki bolalar predmetlarning xususiyatlarini eslash va ularni kerakli paytda eslab qolish ko'nikmalarini egallaydilar. Sensor bilimlar tasavvur va fikrlashning asosini

yaratadi, chunki mavhum tushunchalar ham dastlab konkret sensor tajriba asosida shakllanadi. Sensor etalonlar abstrakt tafakkur uchun baza bo'lib xizmat qiladi, bolalar keyinchalik murakkab ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan asosni oladi.

Nutq rivojlanishi uchun ham sensor tarbiya muhim rol o'ynaydi. Sensor lug'atning boyishi rang, shakl va o'lcham nomlarini o'z ichiga oladi. Bolalar turli xususiyatlarni ifodalovchi so'zlarni o'rganadilar va ularni to'g'ri qo'llashni boshlaydilar. Tavsiflovchi nutqning rivojlanishi bolalarning predmetlar haqida batafsil gapirib berishga olib keladi; ular narsalarning ko'rinishi, hissiyoti va boshqa xususiyatlarini so'zlar bilan ifoda etishni o'rganadilar. Predmetlarni taqqoslash va tavsiflash ko'nikmalari shakllanadi, bu bolalarning analitik fikrlashiga va nutqning aniqligiga ijobiy ta'sir qiladi.

Emotsional-iroda sohasini rivojlantirish uchun ham sensor tarbiya ahamiyatlidir. Estetik his-tuyg'ularni tarbiyalash go'zallikni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi, bolalar ranglar uyg'unligini, shakllarning nafasotini va atrofdagi dunyoning chiroyli tomonlarini baholashni o'rganadilar. Go'zallikni his qilish qobiliyati bolaning shaxsiy rivojlanishida muhim omil bo'lib, uning badiiy didi va estetik madaniyatini shakllantiradi. Maqsadga erishish uchun irodani kuchaytirish sensor vazifalarni to'la bajarishga intilish orqali amalga oshiriladi; bolalar qiyinchiliklarni yengib o'tishni va natijaga erishishni o'rganadilar.

Maktabga tayyorgarlik jarayonida sensor tarbiyaning roli nihoyatda katta. O'qishga tayyorgarlik jihatidan harflarni vizual farqlash muhim bo'lib, sensor etalonlar bolalarga harflarning shaklini tanish va ularni bir-biridan ajrata olishga yordam beradi. Matematikaga tayyorgarlik uchun shakllar, o'lchamlar va miqdorlar haqidagi bilimlar zarur bo'lib, sensor tarbiya orqali bu bilimlarning asosi qo'yiladi. Yozishga tayyorgarlik uchun kichik motorika va koordinatsiyani rivojlantirish kerak; sensor mashqlar bolalarning qo'l harakatlarini aniq va koordinatsiyalashgan qilishga yordam beradi.

Sensor tarbiyani tashkil etishda bir necha muhim prinsiplar rioya qilish zarur. Tizimlilik prinsipi sensor tarbiyani barcha faoliyat turlariga integratsiya qilishni nazarda tutadi, ya'ni sensor elementlar o'yin faoliyatida ham, o'quv mashg'ulotlarida ham, kundalik rejimiy jarayonlarda ham mavjud bo'lishi kerak. Bosqichma-bosqichlik prinsipi oddiydan murakkabga o'tishni ta'minlaydi; dastlab sodda vazifalar beriladi, so'ngra asta-sekin murakkablik darajasi oshiriladi. Individual yondashuv prinsipi har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga olishni talab qiladi, chunki bolalar turlicha sur'atda rivojlanadilar va turli qobiliyatlarga ega. Motivatsiya prinsipi bolalarning qiziqishini uyg'otish va qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi; mashg'ulotlar qiziqarli va bolalar uchun jozibador bo'lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik prinsipi oilada sensor tarbiyani davom ettirishni ta'minlaydi, ota-onalar ham o'z farzandlari bilan uyda sensor o'yinlar o'ynashlari va mashqlar qilishlari muhim.

Mashg'ulotlarni rejalashtirish jarayonida pedagoglar bir necha muhim qoidalarga amal qilishlari kerak. Haftada 2–3 marta maxsus sensor mashg'ulotlar o'tkazish zarur bo'lib, bu mashg'ulotlar maqsadli ravishda ma'lum sensor etalonlarni o'rgatishga qaratilgan bo'lishi kerak. Har kuni erkin o'yin faoliyatida sensor o'yinlar uyushtirishga imkon berish lozim, bolalar mustaqil ravishda didaktik materiallar bilan ishlashlari uchun sharoit yaratilishi kerak. Sayr vaqtida tabiiy materiallar bilan ishlash sensor tajribani boyitadi; bolalar barglar, toshlar, gul va boshqa tabiiy narsalar bilan tanishib, ularning xususiyatlarini o'rganadilar. Badiiy ijod mashg'ulotlarida sensor vazifalarni kiritish sensor tarbiyani ijodiy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga yordam beradi, bolalar chizish, bo'yash yoki modellashtirish jarayonida sensor bilimlarini amaliy qo'llaydilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifasi bo'lib, bu jarayon bolaning umumiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sensor tarbiya bolaning kognitiv, nutqiy, emotsional va jismoniy rivojlanishining asosini tashkil etadi, shuning uchun unga e'tibor berish va uni to'g'ri tashkil etish pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, 3–4 yosh bolalarda sensor etalonlarni maqsadli va tizimli ravishda shakllantirishning ko'plab ijobiy natijalari mavjud. Bolalarning atrofdagi olam haqidagi tasavvurlari kengayadi va aniqlanadi, ular predmetlarning xususiyatlarini chuqurroq tushunib, ularni to'g'ri baholashga qodir bo'ladilar. Predmetlarning xususiyatlarini farqlash va taqqoslash qobiliyati rivojlanadi, bu bolalarning analitik fikrlashiga ijobiy ta'sir qiladi va ularni atrofdagi dunyoni izchilroq tushunishga olib keladi. Sensor-idrok bilim va ko'nikmalari shakllanadi, bolalar turli sensor etalonlarni tanib, ularni nomlash va qo'llash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Maktabga psixologik va intellektual tayyorgarlik darajasi oshadi; sensor etalonlarni yaxshi o'zlashtirgan bolalar maktabda o'qishga osonroq moslashadilar va akademik muvaffaqiyatga erishadilar. Ijodiy qobiliyatlar va estetik his-tuyg'ular rivojlanadi, bolalar o'z ijodiy loyihalarida sensor bilimlarini qo'llab, estetik jihatdan chiroyli va uyg'un ishlarni yaratishga qodir bo'ladilar.

Sensor tarbiyaning samaradorligi bir necha muhim omillarga bog'liq. Pedagoglarning professional tayyorgarligi juda muhim, chunki ular sensor etalonlar nazariyasini yaxshi bilishlari, turli metodlarni qo'llay bilishlari



va bolalar bilan samarali ishlash malakasiga ega bo'lishlari kerak. Maxsus rivojlantiruvchi muhitning yaratilishi zarur, chunki sensor tarbiya uchun mos materiallar, o'yinchoqlar va asboblarni bo'lmasa, samarali ish olib borish qiyin. Turli metodlar va usullardan to'g'ri foydalanish har bir bola uchun eng mos yondashuvni tanlashga yordam beradi va tarbiya jarayonini samarali qiladi. Ota-onalar bilan samarali hamkorlik oilada ham sensor tarbiyaning davom etishini ta'minlaydi va bolalarning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratadi.

Kelajakda sensor tarbiya yo'nalishida yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarur, chunki zamonaviy pedagogika va psixologiya rivojlanib bormoqda va yangi metodlar, texnologiyalar paydo bo'lmoqda. Innovatsion metodlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish sensor tarbiyaning samaradorligini oshirishi, bolalarning rivojlanishiga yanada katta hissa qo'shishi mumkin. Sensor tarbiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, pedagogik tajriba almashuvi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kelajakda maktabgacha ta'limning sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Венгер Л.А. Воспитание сенсорной культуры ребенка от рождения до 6 лет. – М.: Просвещение, 1988. – 144 с.
2. Запорожец А.В. Избранные психологические труды. – М.: Педагогика, 1986. – Т. 1–2.
3. Пилюгина Э.Г. Занятия по сенсорному воспитанию с детьми раннего возраста. – М.: Просвещение, 1983. – 96 с.
4. Montessori M. The Montessori Method. – New York: Schocken Books, 1964. – 376 p.
5. Усова А.П. Обучение в детском саду. – М.: Просвещение, 1981. – 176 с.
6. Сакулина Н.П. Сенсорное воспитание в детском саду. – М.: Издательство АПН РСФСР, 1969. – 212 с.
7. Поддъяков Н.Н. Сенсорное воспитание в детском саду. – М.: Просвещение, 1981. – 192 с.
8. Karimova V.M., Khashimova N.A. Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 256 b.
9. Ибрагимова Д.Х. Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 312 b.
10. Gibson E.J. Principles of Perceptual Learning and Development. – New York: Appleton–Century–Crofts, 1969. – 537 p.
11. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. – New York: International Universities Press, 1952. – 419 p.
12. Янушко Е.А. Сенсорное развитие детей раннего возраста. – М.: Мозаика–Синтез, 2021. – 72 с.
13. Гербова В.В. Занятия по развитию речи с детьми 2–4 лет. – М.: Просвещение, 1993. – 128 с.
14. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim davlat talablari. – Toshkent, 2022.
15. Duschenko T.K., Kolyrina A.I. Sensory Education in Preschool Age // Journal of Early Childhood Education. – 2020. – Vol. 12. – № 3. – P. 45–58.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.